

**OTA-ONALIK HUQUQIDAN MAHRUM QILISH VA OTA-ONALIK  
HUQUQINI CHEKLASH: MUAMMO VA YECHIM**

**Raximbayeva Munira Azad qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

[raximboyevamunira@gmail.com](mailto:raximboyevamunira@gmail.com)

***Annotatsiya:** Ushbu tezisdagi O'zbekistonda ota-onalik huquqidan mahrum qilish va uni cheklashga oid qonunchilik normalari hamda sud amaliyoti tahlil qilingan. 2023 yilda ko'rib tugatilgan ota-onalik huquqidan mahrum qilish bo'yicha 1 271 ta ishdan 217 tasini o'rganish natijasida asosiy muammolar aniqlangan va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so'zlar:** ota-onalik huquqi, mahrum qilish, huquqni cheklash, Oila kodeksi, sud amaliyoti, bola manfaati, vasiylik, prokuror ishtiroki.*

**ЛИШЕНИЕ РОДИТЕЛЬСКИХ ПРАВ И ОГРАНИЧЕНИЕ  
РОДИТЕЛЬСКИХ ПРАВ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ**

**Рахимбаева Мунира Азад қизи**

**Магистрант Ташкентского государственного юридического  
университета**

**Аннотация.** В настоящем тезисе проведён анализ законодательных норм и судебной практики по лишению и ограничению родительских прав в Республике Узбекистан. Изучение 217 дел из 1 271 дела, рассмотренных в

2023 году, позволило выявить основные проблемы и разработать рекомендации по их устранению.

**Ключевые слова:** родительские права, лишение прав, ограничение прав, Семейный кодекс, судебная практика, интересы ребёнка, опека, участие прокурора.

**DEPRIVATION AND RESTRICTION OF PARENTAL RIGHTS:  
PROBLEMS AND SOLUTIONS**

**Rakhimbayeva Munira Azad qizi**

**Master's student of Tashkent State University of Law**

**Annotation.** This thesis analyses the legislative norms and judicial practice concerning deprivation and restriction of parental rights in Uzbekistan. A study of 217 cases out of 1,271 completed cases in 2023 revealed the key problems and developed recommendations for their elimination.

**Keywords:** parental rights, deprivation, restriction of rights, Family Code, judicial practice, child interests, guardianship, prosecutor's participation.

**KIRISH**

Oila – jamiyatning asosi, bola esa uning kelajagi. Ota-onalik huquqlari O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksida mustahkamlab qo'yilgan: ota-onalar farzandlarini boqishi, tarbiyalashi va har tomonlama kamol toptirishga majbur. Biroq amaliyotda ba'zi ota-onalar aliment to'lashdan bosh tortadi, bolaga shafqatsiz muomala qiladi yoki giyohvandlikka mukkasidan ketadi. Bunday hollarda davlat

ota-onalik huquqidan mahrum qilish yoki ushbu huquqni cheklash mexanizmini qo'llaydi. 2019–2023 yillarda oilaviy nizolar 75 385 tadan 115 616 tagacha o'sdi; ota-onalik huquqidan mahrum qilish ishlari 2022 yilda 1 336 taga yetib, 2023 yilda 1 271 ta ish ko'rildi. 2021 yilda Prezidentning PF-6275-sonli Farmoni bilan bolalarni himoya qilish institutlari kuchaytirildi, 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida esa fuqarolik jamiyatining sud amaliyotini monitoring qilish vazifalari belgilandi. Bularning barchasi mazkur sohani ilmiy jihatdan o'rganishni dolzarb qiladi.

Oliy sud Plenumning 1998 yil 11 sentyabrdagi 23-sonli qarori ota-onalik huquqidan mahrum qilish ishlarida prokuror va vasiylik-homiylik organining ishtiroki majburiyligi, javobgarning qatnashishi, qaror xulosa qismida bolani tarbiyalash uchun kimga berilayotganligi ko'rsatilishi shartligini belgilaydi. Biroq 2023 yil ishlarining 22,65 foizini tashkil etuvchi 217 ta qaror tahlili bir qancha muammolarni aniqlashirib ko'rsatadi. .

Ushbu tadqiqotning maqsadi – ota-onalik huquqidan mahrum qilish va ota-onalik huquqini cheklashga doir sud amaliyotidagi tizimli muammolarni statistik ma'lumotlar asosida aniqlash, bola manfaatlarini kafolatlash nuqtayi nazaridan baholash hamda sud jarayoni samaradorligini oshirishga qaratilgan aniq takliflar ishlab chiqishdan iborat.

**Ushbu tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi:** *normativ-huquqiy tahlil* — ota-onalik huquqidan mahrum qilish va uni cheklashga oid qonunchilik hujjatlari (Oila kodeksi, Fuqarolik protsessual kodeksi, Oliy sud Plenumi qarorlari) o'rganildi; *empirik va statistik tahlil* — 2023 yilda ko'rib tugatilgan 1 271 ta ishdan

217 tasi miqdoriy ko'rsatkichlar bo'yicha tahlil qilindi; *tizimli tahlil* — da'vogar tarkibi, da'vo yo'nalishi, prokuror va vasiylik organi ishtiroki, advokatlik yordamiga erishimlilik va ogohlantirish mexanizmi yaxlit tizim sifatida o'rganildi.

### **TADQIQOT NATIJALARI**

Oila kodeksining 79-moddasida ota-onalik huquqidan mahrum qilish asoslari: ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bosh tortish, shu jumladan aliment to'lashdan bo'yin tovlash; bolaga nisbatan shafqatsiz muomala; muttasil ichkilikbozlik yoki giyohvandlik; bolaning yoki er (xotin)ning hayotiga qarshi qasddan jinoyat sodir etish kabilar belgilangan. Biroq, 2023 yilda ko'rib tugatilgan 1 271 ta shu toifadagi ishdan 217 tasini o'rganish shuni ko'rsatdiki, sud qarori asoslantiruvchi qismida Oila kodeksi 79-moddasining qaysi bandi asosida ota yoki ona huquqidan mahrum qilinishi yoki qilinmasligi ko'pincha aniq asoslantirilmaydi. Shuningdek, da'vo rad etilgan 78 ta ishdan faqat 3 tasida (3,84%) xulosa qismida javobgarni ogohlantirish haqida ko'rsatma mavjud bo'lgan. Tizimni nazariya va amaliyot o'rtasidagi ushbu ziddiyat eng ko'p aziyat chekuvchi tomoni — voya yetmagan bola ekanligini inkor etib bo'lmaydi.

O'rganilgan 217 ta sud qarorini tahlil qilish quyidagi asosiy natijalarni berdi.

**Da'vogarlar tarkibi bo'yicha.** 217 ta ishning 127 tasida (58,52%) da'vo arizasi ota-ona tomonidan, 58 tasida (26,72%) prokuror tomonidan, 29 tasida (13,36%) bolalarni himoya qilish komissiyalari tomonidan kiritilgan. 106 ta ishda (48,84%) da'vogar xotin-qizlar bo'lgan. Bu esa mazkur toifadagi nizolarda ayollar uchun adolatli sudlovga erishimlilik masalasini alohida ko'tarib chiqadi. Bundan

tashqari, bu toifadagi ishlar bo'yicha davlat boji BHMning 2 barobari ekanligi xotin-qizlar uchun qo'shimcha to'siq vazifasini o'tamoqda.

**Da'vo yo'nalishi bo'yicha.** O'rganilgan 217 ta ishning 106 tasida (67,74%) otalik huquqidan, 58 tasida (26,73%) onalik huquqidan va 12 tasida (5,53%) ota-onalik huquqidan mahrum qilish so'ralgan. Diqqatga sazovorki, 217 ta ishda jami 331 ta voya yetmagan bolaning manfaati hal etilishi nazarda tutilgan bo'lsa-da, atigi 9 ta ishda (4,14%) sud qarorining xulosa qismida bolani tarbiyalash uchun kimga berilayotganligi ko'rsatilgan. Bu hol bola manfaatini ta'minlashning huquqiy kafolat sifatida to'liq ro'yobga chiqmayotganini anglatadi.

**Prokuror va vasiylik organi ishtiroki bo'yicha.** Oliy sud Plenumining 1998 yil 23-sonli qarori 13-bandiga ko'ra bu toifadagi ishlar prokuror hamda vasiylik va homiylik organi ishtirokida ko'rib chiqilishi shart. Tahlil shuni ko'rsatdiki, 204 ta ishda (94,01%) prokuror ishtiroki ta'minlangan; prokuror ishtirok etgan ishlarda da'voni qanoatlantirish darajasi 65,2 foizni tashkil etgan, ishtirok etmagan ishlarda esa bu ko'rsatkich 23,08 foizga tushgan. Vasiylik va homiylik organi vakillari esa 172 ta ishda (79,26%) qatnashgan.

**Advokatlik yordamiga erishimlilik bo'yicha.** Tahlil qilingan 217 ta ishning 186 tasida (85,71%) tomonlar o'z manfaatlarini mustaqil (advokatsiz) himoya qilgan. Advokatsiz kiritilgan da'vo arizalarda muhim ma'lumotlar ko'pincha keltirilmaydi, kerakli dalillar ilova qilinmaydi, bu esa ish ko'rish muddatlarini uzaytiradi va yuqori instansiyalarga shikoyat qilinishi ehtimolini oshiradi.

**Ogohlantirish mexanizmi bo'yicha.** Oliy sud Plenumning 16-bandiga asosan ayrim hollarda ota yoki onaning aybi tasdiqlansa-da, sud uni ota-onalik huquqidan

mahrum qilish o'rniga vasiylik organlari nazoratida ogohlantirishi mumkin. Ammo 78 ta rad etilgan ishdan faqat 3 tasida (3,84%) xulosa qismida javobgarni ogohlantirish haqida ko'rsatma mavjud bo'lgan. Bu esa qonunning ushbu himoya mexanizmidan amaliyotda deyarli foydalanilmayotganidan dalolat beradi.

### **TAKLIF QILINAYOTGAN HUQUQIY CHORALAR**

#### **1. Sud qarorlari xulosa qismida huquqiy asosni aniq ko'rsatish majburiyati.**

Amaliyotni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bir qator hollarda sudlar ota-ona huquqidan mahrum qilish to'g'risida qaror chiqarishda Oila kodeksining 79-moddasi doirasidagi qaysi muayyan asos qo'llanilayotganligini qaror rezolutiv qismida etarlicha aniq ko'rsatmayapti. Bunday holat apellyatsiya va kassatsiya bosqichlarida huquqiy nazoratni qiyinlashtiradi, shuningdek, bola manfaatlariga oid qarorning isbotlanganlik darajasini baholashni murakkablashtiradi. Shu sababli, sud qarorining xulosa qismida Oila kodeksi 79-moddasining qaysi bandi (masalan, 1-band — ataylab jinoyat sodir etish, 2-band — muomala qilishdan bo'yin tovlash, 3-band — alimentdan uzoq muddat bo'yin tovlash va h.k.) asosida huquqdan mahrum qilinayotganligi, qaysi dalillar ushbu bandga asos bo'lganligi va bolani bundan buyon kim tarbiyalash uchun mas'ul ekanligi — ikkinchi ota-ona, vasiy yoki davlat muassasasi — aniq va bir ma'noli tarzda ko'rsatilishi qonuniy majburiyat sifatida mustahkamlanishi lozim. Ushbu talab Oliy sudning tegishli Plenumi qaroriga kiritilishi yoki Fuqarolik protsessual kodeksiga alohida norma sifatida qo'shilishi maqsadga muvofiqdir.

## **2. Ayollarni davlat bojidan ozod qilish orqali adolatli sudlovga erishimlilikni ta'minlash.**

Ota-ona huquqidan mahrum qilishga doir talablar ko'pincha xotin-qizlar tomonidan — ko'p hollarda oilaviy zo'ravonlik, iqtisodiy qaram ahvol yoki yolg'iz ona sifatida tirikchilik mashaqqati bilan og'ir vaziyatda qolgan shaxslar tomonidan qo'yiladi. Bunday toifadagi da'vogarlar uchun davlat bojini to'lash jiddiy moliyaviy to'siq bo'lib, adolatli sudlovga erishimlilik tamoyiliga — Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt 14-moddasi hamda Bolalar huquqlari to'g'risidagi konvensiya 3-moddasida mustahkamlangan tamoyilga — zid kelishi mumkin. Shu munosabat bilan ushbu toifadagi nizolarda sudga murojaat qilgan xotin-qizlar Fuqarolik protsessual kodeksining davlat bojidan ozod qilishga doir moddas ga tegishli qo'shimcha kiritilishi orqali davlat bojini to'lashdan butunlay ozod etilishi tavsiya etiladi. Bu chora nafaqat moddiy adolatni ta'minlaydi, balki bola huquqlarini himoya qilishda davlatning faol ishtiroki tamoyilini ham mustahkamlaydi.

## **3. Ota-onalik huquqidan mahrum qilish nizolarida dastlabki mediatsiya tartibini joriy etish.**

Xalqaro tajriba, xususan Germaniya, Fransiya va Skandinaviya mamlakatlarning oilaviy huquq amaliyoti, ko'rsatadiki, ota-onalik huquqidan mahrum qilish talabi qo'yilgan hollarda ham dastlabki mediatsiya tartibi oilani saqlab qolish yoki munosabatlarni tuzatish imkonini berishi mumkin. O'zbekiston qonunchiligida mediatsiyaga doir 2018-yilda qabul qilingan qonun mavjud bo'lsa-da, oilaviy nizolarda, xususan bola huquqlari to'g'risidagi qarorlarni o'z ichiga

oluvchi nizolarda mediatsiyaning amaliy qo'llanilish mexanizmi hali yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Taklif etilayotgan tartibga ko'ra, ota-onalik huquqidan mahrum qilish haqidagi da'vo sudga berilganidan so'ng ish ko'rishning dastlabki bosqichida — to'liq sud majlisigacha — tegishli litsenziyaga ega mediator yoki oilaviy psixolog ishtirokida murosa imkoniyatlarini o'rganish majburiy bosqich sifatida belgilanishi lozim. Bunda mediatsiyaning maqsadi ota-onani huquqlarni tiklash yo'lida qo'yishi lozim bo'lgan konkret qadamlar (davolash kursi, ishga joylashish, alimentni tartibga solish va h.k.) bo'yicha kelishuv tuzish bo'lib, bunday yondashuv ham bola manfaatlarini, ham oilani saqlab qolish imkoniyatini birvarakayiga ko'rib chiqishga xizmat qiladi.

#### **4. Ogohlantirish mexanizmidan kengroq foydalanishni Plenum ko'rsatmalari orqali mustahkamlash.**

Oila kodeksining 80-moddasida ota-onalik huquqidan mahrum qilishning muqobili sifatida ogohlantirish instituti nazarda tutilgan bo'lsa-da, amaliyotda sudlar ushbu mexanizmga kam murojaat etib, huquqdan mahrum qilishni bevosita qo'llashga moyil ekanligi kuzatilmoqda.

Holbuki, xalqaro standartlar — xususan, BMT Bolalar huquqlari qo'mitasining Bosh izohlari — oiladan ajratish va huquqdan mahrum qilishni favqulodda va oxirgi chora sifatida qo'llashni talab etadi. Mazkur muammoni hal etish maqsadida O'zbekiston Oliy sudining Plenumi tomonidan chiqariladigan tegishli tushuntirish qarorida quyidagilar aniq ko'rsatilishi tavsiya etiladi: birinchidan, ogohlantirish qanday hollarda yetarli chora hisoblanishi; ikkinchidan, ota-onaga belgilangan muddatda xulq-atvorini tuzatish imkoniyati berilmagan holda to'g'ridan-to'g'ri

huquqdan mahrum qilishga yo'l qo'yilmasligining mezonlari; uchinchidan, ogohlantirish chorasi qo'llangan holatlarda nazorat mexanizmi qanday amalga oshirilishi. Bunday yondashuv sudyalari uchun qonuniy majburiyat emas, balki izchil va oldindan ko'ra biladigan amaliyot shakllantiradi.

### **5. Ushbu toifadagi nizolarni davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatiladigan ishlar ro'yxatiga kiritish.**

O'zbekistonda davlat tomonidan kafolatlangan yuridik yordam tizimi 2023-yilda qabul qilingan tegishli qonun asosida faoliyat yuritadi. Biroq hozirgi kunda ushbu yordam, asosan, jinoiy ishlar bilan cheklangan bo'lib, oilaviy huquqiy nizolar — jumladan, bola manfaatlariga bevosita ta'sir etuvchi ota-onalik huquqidan mahrum qilish ishlari — davlat hisobidan bepul yuridik yordamdan foydalanish huquqini beruvchi ishlar ro'yxatiga kiritilmagan. Vaholanki, bunday nizolarda moliyaviy imkoniyati cheklangan tomon — ko'pincha ona — vakolatli advokat yordamisiz sudga chiqishga majbur bo'ladi, bu esa taraflar tengligini buzadi va bola manfaatlarini himoya qilish sifatiga putur yetkazadi. Shu sababli, "Davlat hisobidan yuridik yordam to'g'risida"gi qonunga tegishli o'zgartirish kiritish orqali ota-onalik huquqidan mahrum qilish, bolani tarbiyalash uchun vasiylik o'rnatish va bola bilan muloqot tartibini belgilashga doir nizolar davlat hisobidan bepul yuridik yordam ko'rsatiladigan fuqarolik ishlari toifasiga qo'shilishi lozim. Bunday tadbir O'zbekistonning Bolalar huquqlari to'g'risidagi konvensiyadan kelib chiqadigan xalqaro majburiyatlarini ham yanada to'laqonli amalga oshirishga xizmat qiladi.

### **XULOSA**

Umuman olganda, ushbu tadqiqot davomida O'zbekiston Respublikasida ota-onalik huquqidan mahrum qilish va ota-onalik huquqini cheklashga oid qonunchilik normalari hamda sud amaliyotidagi tizimli muammolar batafsil tahlil qilindi. 2023 yilda ko'rib tugatilgan 1 271 ta ishdan 217 tasini empirik o'rganish, normativ-huquqiy tahlil va statistik usullar orqali amalga oshirilgan tadqiqot sud amaliyotidagi mavjud nuqsonlar va ularning bola manfaatlariga ta'sirini aniq ko'rsatib berdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda ota-onalik huquqidan mahrum qilish institutini tartibga soluvchi normativ-huquqiy baza — Oila kodeksining 79-80-moddalari, Oliy sud Plenumining 1998 yildagi 23-sonli qarori va tegishli protsessual normalar — mavjud bo'lsa-da, ushbu normalarning amalda izchil va bir xil qo'llanilishi ta'minlanmagan. Xususan, sud qarorlarining xulosa qismida Oila kodeksi 79-moddasining qaysi bandi asosida huquqdan mahrum qilinayotganligi ko'rsatilmasligi, 217 ta ishning 331 ta bolasidan faqat 9 tasiga nisbatan (4,14%) kimga berilishi aniq belgilanishi, ogohlantirish mexanizmining 78 ta rad etilgan ishdan atigi 3 tasida (3,84%) qo'llanilishi — bularning barchasi qonuniylik va bola manfaatlarini kafolatlash tamoyillarining to'liq amalga oshirilmayotganligidan dalolat beradi.

Shuningdek, 217 ta ishning 186 tasida (85,71%) tomonlarning advokatsiz qatnashishi adolatli sudlov tamoyilini, da'vogarlarning aksariyati xotin-qizlar bo'lishi va davlat bojining moliyaviy to'siq vazifasini o'tashi esa adolatga erishimlilik huquqini jiddiy cheklamoqda. Ushbu holat O'zbekistonning Bolalar huquqlari to'g'risidagi konventsiya va Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi

xalqaro paktdan kelib chiqadigan xalqaro majburiyatlari bilan bevosita bog'liq masaladir.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish va ota-onalik huquqini cheklash institutini takomillashtirish nafaqat sud amaliyotining sifatini yuksaltiradi, balki O'zbekistonda bola huquqlarini real va samarali kafolatlashning muhim omili bo'lib xizmat qiladi hamda mamlakatimiz oilaviy huquq tizimini xalqaro standartlarga yanada yaqinlashtiradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. 30.04.1998 y.  
<https://lex.uz/docs/111365>
2. O'zR Prezidentining «Bola huquqlarining kafolatlarini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6275-sonli Farmoni. 09.08.2021 y.
3. O'zR Oliy sudi Plenumining 23-sonli «Ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi ishlarni ko'rishda qonunchilikni qo'llashning ayrim masalalari haqida»gi qarori. 11.09.1998 y.
4. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi, 2022–2026. O'zR Prezidentining PF-60-sonli Farmoni. 28.01.2022 y.
5. Ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi ishlarni sudlarda ko'rish amaliyoti (tahliliy ma'lumotnoma). – Toshkent: BMTTD, 2024.



6. Inson huquqlari bo'yicha O'zR milliy Markazining «O'zR da qonunlar bajarilishi ustidan jamoatchilik nazoratini tashkil etish» o'quv-uslubiy qo'llanmasi.  
– Toshkent, 2019.